

**KRON KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA
IMMUNOLOGIK KO'RSATKICHLAR ASOSIDA KASALLIKNING
QAYTALANISH XAVFINI PROGNOZLASH**

Sattarov Jasur Elmurodovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Kron kasalligi bilan og'rigan bemorlarda immunologik ko'rsatkichlar asosida kasallikning qaytalanish xavfini prognozlash imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot 2015–2024 yillar davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi va Buxoro davlat tibbiyot instituti klinik bazalarida kuzatilgan 82 nafar bemor misolida olib borildi. Tahlillar davomida IL-1 β , IL-6, TNF- α , IL-10 kabi sitokinlarning darajalari aniqlanib, ularning kasallikning og'irligi va qaytalanish chastotasi bilan bog'liqligi o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, IL-6 va TNF- α darajasining oshishi, IL-10 darajasining pasayishi kasallikning qaytalanish xavfi bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Ushbu immunologik biomarkerlar asosida qaytalanishni erta aniqlash va individual davolash strategiyasini ishlab chiqish imkoniyati shakllantirildi. Tadqiqot natijalari Kron kasalligini boshqarishda immuno-patogenetik yondashuvlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Kron kasalligi, immunologik ko'rsatkichlar, IL-6, TNF- α , IL-10, qaytalanish xavfi, prognozlash, biomarkerlar.

Kirish. Kron kasalligi (KK) — surunkali yallig'lanishli ichak kasalliklarining eng og'ir shakllaridan biri bo'lib, u bemorlarning hayot sifati va mehnat qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda bu kasallikning uchrash chastotasi har yili o'rtacha 5–7% ga oshmoqda. Kasallikning qaytalanish (relaps) holatlari 40–60% bemorlarda kuzatilib, ko'pincha yallig'lanish jarayonining qayta faollashuvi bilan kechadi. Shu sababli, qaytalanish xavfini oldindan aniqlash imkonini beruvchi

immunologik mezonlarni ishlab chiqish zamonaviy gastroenterologiyada dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1–3]. Tadqiqotning asosiy maqsadi Kron kasalligida immun tizimi ko'rsatkichlari asosida qaytalanish xavfini prognozlash modelini shakllantirish va bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashdan iboratdir.

Materiallar va usullar. Tadqiqot ob'ekti sifatida 2015–2024 yillar oralig'ida Toshkent tibbiyot akademiyasi va Buxoro davlat tibbiyot instituti klinik bazalarida kuzatilgan va davolangan 82 nafar Kron kasalligi bilan og'rigan bemorlar tanlab olindi. Tadqiqot predmeti — Kron kasalligining qaytalanish xavfini bashorat qilish va oldini olish usullarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida umumklinik, immunologik, biokimyoviy, endoskopik, vizual va statistik tadqiqot usullari qo'llanildi. Immunologik tekshiruvlar orasida IL-1 β , IL-6, TNF- α , IL-10 va CRP darajalari aniqlanib, ularning kasallikning og'irligi va qaytalanish chastotasi bilan bog'liqligi baholandi. Natijalar statistik tahlil qilinib, **korrelyatsion va regressiya tahlili** orqali bashorat modellarining ishonchliligi tekshirildi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko'ra, kasallik qaytalanish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarda proinflamator sitokinlar (IL-1 β , IL-6, TNF- α) darajalari sezilarli darajada oshganligi ($p < 0,01$) kuzatildi. Shu bilan birga, anti-inflamator sitokin IL-10 darajasi pasayganligi qayd etildi ($p < 0,05$). Kasallik remissiya bosqichidagi bemorlarda IL-6 va TNF- α darajasi normaga yaqin bo'lib, qaytalanish holatlarida ularning o'rtacha ko'rsatkichi 2,5–3 baravar yuqori ekanligi aniqlandi. Statistik modellash natijalari shuni ko'rsatdiki, IL-6 > 25 pg/ml va TNF- α > 30 pg/ml bo'lgan bemorlarda qaytalanish xavfi 78% holatda kuzatilgan. Bu esa immunologik biomarkerlarni klinik kuzatuv tizimiga kiritish zarurligini tasdiqlaydi.

Muhokama Olingan natijalar Kron kasalligida immun tizimi faolligining qaytalanish mexanizmlarida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. IL-6 va TNF- α darajalarining oshishi ichak shilliq qavati yallig'lanishining davom etayotganligini bildiradi, bu esa kasallik remissiyasining beqarorligiga olib keladi. IL-10 darajasining pasayishi yallig'lanish jarayonini tormozlovchi mexanizmlarning

sustlashganini ko'rsatadi. Shunday qilib, immunologik ko'rsatkichlar asosida bemorlarni individual kuzatuv va davolash strategiyasini ishlab chiqish, Kron kasalligini qaytalanish xavfini oldindan baholash va samarali profilaktika choralarini qo'llash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Kron kasalligida immunologik biomarkerlar asosida qaytalanish xavfini erta aniqlash mumkin. IL-6, TNF- α va IL-10 darajalari asosida tuzilgan baholash tizimi klinik qarorlarni individual tarzda qabul qilishni osonlashtiradi hamda davolash samaradorligini oshiradi.